

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМЛИ
УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“БАРКАМОЛ АВЛОД ШАКЛЛАНИШИДА
МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ
ТУТГАН ЎРНИ”
МАВЗУИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
СЕМИНАРИ**

МАТЕРИАЛЛАРИ



ТОШКЕНТ-2016

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Barkamol – avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". – T., 1997.
2. Manaviyat asoslari. M.Hamdanova. - Toshkent, 2008.
3. Oila va jamiyat. 19-son 13 may 2015 yil.
4. G`B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog`inov.Oila psixalogiyasi. - Toshkent, 2008.

UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

M.U.Yusupova - TATU Urganch filiali o`qituvchisi

S.O.Marimbayeva - TATU Urganch filiali talabasi

Y.O.Sultonov - TATU Urganch filiali talabasi

Yoshlikda olgan bilim- toshga o`yildan naqshdir

Nihol so`zini eshitganimizda avvalambor ko`z oldimizda yosh avlod gavdalanadi. Chunki biz yangi nihollarmiz, hozir kim bizni qaysi tarafga yo`naltirsa, shu tarafga qarab o`samiz. Yoshlar bizdan yoshi kattalarga topshirilgan katta mas`uliyatdir. Shuni aytib o`tish joyizki, bola boshdan,deyishadi dono xalqimiz, ya`ni, yoshlikdagi tarbiyamiz yaxshi bo`lsagina biz komil inson bo`lib voyaga yeta olamiz. Biz qurayotgan binoning tayanch qismi qanchalik mustahkam bo`lsa, binomizni umri ham shunchalik uzun bo`ladi.

Ota-ona uchun farzand eng shirin ne`mat, ularning davomchilaridir, g`amxo`rlaridir. Halqimizda bola aziz – tarbiyasi undan ham aziz degan gap bejizga aytilmaganiga yana bir bor iqror bo`lamiz. Ba`zi bir yoshlarimiz ota-ona mehri qonib, ba`zilari esa bolalar uyida, yaqin qarindoshlari qaramog`ida katta bo`lishyapti. Xo`sh, yoshlar tarbiyasi, ruhiyatidagi nuqsonlarga har doim ham e`tibor qarata olamizmi? Albatta yo`q. Chunki ba`zan ish, tashvishlarimiz bilan band bo`lamiz. Bu esa kelajakimizga loqayd qarayotganimizning isbotidir.

Bolaga e`tibor kelajakka e`tibor demakdir. Maktab, kollej, litsey o`qituvchilarimiz zimmasida shunday mas`uliyatli ish turibdi, ular sog`lom bolalar bilan birga, ota-onasi yo`q, yoki aqlan zaif bolalar bilan ham alohida shug`illanishlari tahsinga sazovordir. Ze`ro, har bir inson hatto yoshi kattalar ham o`zgalardan mehr kutib yashaydi. Bu muammo oxir oqibat yoshlar begonalarga yuzlanib har xil yomon yo`llarga kirib ketishlari mumkinligidan dalolat beradi.

Oynai jahon orqali berib borilayotgan ko`rsatuvlarda ham bularni ko`rishimiz mumkin: bolaga ertak aytib bering, ze`ro ertak orqali bola o`zgalarga, yaqinlariga nisbatan mehr- oqibatli bo`lishni o`rganadi va o`zini asosiy qahramon ya`ni yovuzlikni yenguvchi kuch sifatida tasavvur qila boshlaydi. Ota-onalarimiz farzand tarbiyasiga mas`uliyat bilan qarashlari lozim deb o`ylayman, bu borada har xil o`quv kurslari, maslahat markazlari, forumlar tashkil qilish kerak. Bu sa`y harakatlar bilan oz bo`lsada qaralayotgan muammoni hal qilishda yordam bergan bo`lar edik. Chunki,

bu nuqsonlar oqibatida paydo bo'lgan ma'naviy bo'shliq bora – bora salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda yuqorida aytib o'tilgan salbiy ta'sirlar oqibatini guvohi bo'lganmiz. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ma'naviy poligonlar har qanday jang poligonlaridanda kuchlidir" deb aytgan gapini be'jizga emas. "Farzandlar kamoli-yurtim kamoli" va yana yurtboshimizning "Yoshlar-bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, ezgu ishlarimizning davomchilaridir" deya biz yoshlarga qarata bildirgan ishonchini oqlashimiz, shunday zaminga loyiq farzand bo'lib kamolga yetishimiz darkor. Ze'ro, biz yoshlar uchun barcha sharoitlar mujassam. Shunday yurtda tug'ilib voyaga yetayotganimiz ham bizning katta baxtimizdir.

Butun dunyo O'zbekistonni eng tinch davlat deb tan olgan. Bularning asosiy sababchisi keksalarimizdir, ya'ni, urush qatnashchilari hisoblanadi. Ular sabab bizning osmonimiz musaffo, uyimiz tinch. Buning uchun biz ulardan minnaddormiz.

2015-yil Yurtboshimiz tomonidan "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilindi. Bu borada ko'pgina ishlar olib borilmoqda, keksalarimizni sog'lomlashtirish maskanlariga, dam olish maskanlariga bepul yuborilyapti. Ularga yordam berish uchun yoshlar jalb etilmoqda. Yoshlarning keksalardan maslahat so'rab ularga quloq tutgan holda ish ko'rishsa to'g'ri yo'l tanlagan bo'lishar edi. Chunki ular hayot yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarni bosib o'tishgan. Ularga yordam berish ham bizning zimmamizda.

Biz o'rganayotgan mavzu ham hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Oldin farqlab olaylik uyushmagan va uyushgan yoshlar farqini.

Uyushgan yoshlar – bu qatlamga o'spirin va kichik yoshdagi yoshlar qatlami kiradi. Maktab, kollej, litsey o'quvchilari, ma'daniyat uylari, ijtimoiy markazlar, sport sog'lomlashtirish va san'at to'garaklari, seksiyalar va boshqa tashkiliy ishlar qatnashchilari hisoblanadi. Bu tashkilotlar yoshlarni bo'sh vaqtini band qilish uchun yo'naltirilgan, o'smir yigit va qizlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, foydali narsalar o'rgata olishga, oilaga yordam berish, tarbiyasi bilan shug'ullanishga, o'smir yoshdagi yoshlarni havfsizligini ta'minlash, tarbiyalash, nuqsonlarini to'g'irlashda ko'maklashishga qaratilgan.

Uyushmagan yoshlar – bu bir guruh yoshlardan tashkil topgan jamoa bo'lib, biror bir sababga ko'ra birlashgan misol uchun, bir xil qiziqishlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Uyushmagan yoshlar guruhlar tashkil qilib biror ish bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin, nimalar bilan shug'ullanayotgani biz uchun qorong'u, xoh yaxshi ish bo'lsin, xoh yomon. Yoshlarning bunday qarovsiz qolishi natijasida salbiy natijalar yuzaga kelishi mumkin. Ular uyushgan holda ichkilikbozlik, har xil diniy ekstremistik oqimlarga, kechki klublarga, giyohvandlik, chekish, tanaga har xil bo'yoqlar yordamida turli ma'nodagi rasmlar chizdirish va shu kabi boshqa yomon ishlar bilan shug'ullanishlari mumkin. Bunday salbiy oqibatlar kuzatilmaligi uchun biz tengdoshlarimiz, bizdan kichik va katta yoshdagi yaqinlarimiz nimalar bilan band ekanligi haqida qiziqishimiz, to'g'ri yo'l ko'rsatish biz uchun ham farz, ham qarz hisoblanadi.

Yoshlar bunday yomon yo'llarga kirmasligi uchun ularni bandligini ta'minlashimiz kerak. Bu ish bilan shug'ullanadigan kichik tashkilotlar tashkil qilishimiz kerak va bu ishlar bilan shug'ullanadigan web sayt yaratish va kundalik

yangilab borish: yangi e'lonlar qo'shish, ish o'rinlari haqida ma'lumot berib borish, ish izlayotgan yoshlar haqida to'liq ma'lumotlar berib borishni kiritsak bo'ladi. Bo'sh ish o'rni izlash, ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlash bilan shug'ullanadigan tashkilot vakillari birma bir hamma korxonalar va tashkilotlar bilan muloqot qilgan holda kundalik yangiliklardan xabardor bo'lib borishlari lozim. Bu ishimiz bilan ham muammoni hal bo'lishida biroz bo'lsada yordam bergan bo'lardik. Ko'pgina uyushmagan yoshlar bo'sh vaqtida, ishsizlikdan, dam olish uchun har xil yig'ilishlar tashkil qilishlari mumkin. Salbiy oqibatlarini oldini olish uchun nazoratni kuchaytirishimiz, ya'ni ota-onalar farzandlari nima bilan shug'ullanayotganiga qiziqishlari, nazorat qilishlari, bandligini ta'minlashlari kerak. Bolani ko'p siquvga olish ham yaramaydi bular oqibatida bola qilayotgan ishlarini yashirayotgan, kattalardan qo'rqadigan bo'lib qoladi. Ular eng samarali yo'lni izlab topishlari, psixolog bilan maslahatlashishi lozim. Chunki yoshlar bizni kelajagimiz, ertangi kunimizdir.

Yoshlarni dam olishi uchun yoshidan kelib chiqqan holda har xil turdagi dam olish maskanlari tashkillashtirishimiz kerak. O'g'il bolalar uchun sport sog'lomlashtirish markazlari, qizlarimiz uchun har xil turdagi to'garaklar tashkil qilishimiz lozim. Bu bilan birgalikda ularni bandligini ta'minlashimiz, vaqtini mazmunli o'tirishimiz, foydali narsalar o'rgatishimiz mumkin. Iloji boricha bepul tashkillashtirishimiz kerak. Yosh ota – onalar uchun bola parvarishi to'g'risidagi to'garaklar shakllantirishimiz kerak. Uyidan chiqishga imkoniyati bo'lmagan yoshlar: yosh bolali yoki ko'p bolali ayollar, uyida qaramoqqa muhtoj insoni bor, nogiron yoshlar uchun uy sharoitida ishlasa bo'ladigan kasb-hunar, ish o'rgatish uchun darslar, web saytlar tashkil qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida insonlar hayotida anchagina qulayliklar yaratildi, buni uy sharoitida ishlash uchun tadbir qilish foydadan holi bo'lmaydi. Internet orqali hozirgi kunda ko'pgina muammolarimizga yechim topib, ish faoliyati olib borish ajablanarli emas.

Bu muammoni o'rganishda, hal qilishda malakali pedagoglarimizdan yordam so'rasak bo'ladi. Ular bizlarga hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda to'g'ri yo'l ko'rsatishlari mumkin.

Avvalambor yoshlarimizni qiziqishlarini o'rgangan holda ularni shu bo'yicha yo'naltirsak ahamiyga ega bo'ladi. Qiziqtirish va e'tiborini tortish maqsadida har xil sahna ko'rinishlari, o'yinlar orqali jalb etsak foydadan holi bo'lmaydi.

YER SILKINISHI VA UNING OQIBATLARI

X.B.Rajabov - UrDU katta o'qituvchisi
G.Abdullayeva - UrDU talabasi

Kishilik jamiyati sivilizatsiyasining tarixi tabiiy ofatlar, kasofatlar bilan bog'liq. Sodir bo'lgan har qanday turdagi tabiiy ofatlar mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqishiga, ko'pgina insonlarning o'limiga, hayot faoliyatining buzilishiga, tabiat zararlanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa o'tgan XX asrda tabiiy ofatlardan 11 milliondan ortiq insonlar o'limi va juda katta miqyosdagi moddiy zarar ko'rildi.

on caravan routes in central asia (in the developed middle ages).....	
X.B.Rajabov, S.B.Rajabova. Atrof-muhit muhofazasi.....	325
Z.B.Alloberganova, M.A.Ro'zmetov, M.Yo'ldosheva. Xorazm sharoitida qadimiy bugdoy novlarining bioekologik xususiyatlari.....	328
Д.Х.Умурзоков, М.У.Ахмедова. Ички ишлар идораларида психологик хизмат.....	330
H.Sh.Bekmanova, S.Sh.Bekmanova. Milliy o'zbek kurashining milliy qadriyat ekanligi.....	332
X.B.Rajabov, Z.N.Yuldasheva. Inson hayotida axborot.....	335
Д.Бекчанов. Oila jamiyat va davlat muhofazasida.....	339
J.S.Doschanov, S.M.Navro'zova, O.H.Yusupova. Petuniya o'simligidan lanshaft dizayinida foydalanish.	341
J.S.Doschanov, S.M.Navro'zova, F.F.Allaberganova. OITS - tiriklik va taraqqiyot dushmani.....	343
Д.Х.Умурзоков, М.М.Зоирова. Хотин - қизларнинг инқирозли вазиятдан чиқишида аҳолига ижтимоий-психологик хизмат кўрсатишнинг ўрни.....	345
X.B.Rajabov, M.I.Yuldasheva. Rog'un gesi qurilishi oqibatlarini.....	348
Л.И.Қурбонov. Интеллектуал салоҳият тushunchasi, sotsial ildizi va uning mohiyati.....	350
H.M.Osmombekova, J.X.Adambaev. Aёл – oilaning, jamiatning ishonchi, tayanchidir.....	353
X.B.Rajabov, O.A.Radjabov. Mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari.....	355
Z.B.Alloberganova, J.O.Jumaniyozov, B.M.Xo'janiyozova. Qattiq va yumshoq bugdoy turlarini qiyosiy morfologik tuzilishi.	357
X.M.Raximova, R.Rustamboyeva, U.Saidov, A.Saidov. Oila - muqaddas dargoh.....	360
M.U.Yusupova, S.O.Marimbayeva, Y.O.Sultonov. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish.....	362
X.B.Rajabov, G.Abdullayeva. Yer silkinishi va uning oqibatlarini.....	364
Z.B.Alloberganova, D.I.Masharipova, Sh.N.Tajiyeva. G'o'zaning ayrim turkum turlarining morfologik belgilari.....	367
X.B.Rajabov, M.Karimova. Suv tanqisligi muammosi.....	369
P.C.Ruzmetov, M.B.Doschanova. Zamonauiy usulda tuprok namligi bo'shqaqirish muammosi.....	371
Ш.Алиева. Талабаларни дарса ва дарсдан ташқари тадбирларда маънавий кадрятлар руҳида тарбиялаш.....	374
M.Salayeva, F.Allaberganova. Malakali tashkilotchi mutaxassisni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy harakat.....	376
X.B.Rajabov, S.B.Saparova. Ozon qatlami yemrilishi muammosi.....	378
A.Masharipov, Ш.Жуманиязова, P.Нилуфар, M.Султонова Экотуризмни ривожлантиришда миллий кадрятларимизнинг ўрни.....	380
M.Дўсназарова. Инсоният тарихи – ғоялар тарихидир.....	383